



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2025



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI TO'PLAMI

2-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



**O'RGATISHDAN ILHOMLANTIRISH SARI: SAN'AT TA'LIMIDA ZAMONAVIY
PEDAGOGNING ROLI**

Zoyirova Dilfuza Xayriddinovna

Samarqand Davlat chet tillari instituti
Narpay Xorijiy tillar fakulteti ilmiy rahbari

Kosbayeva Asemoy Serik qizi

Samarqand Davlat chet tillari instituti
Narpay Xorijiy tillar fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

“Tasviriy faoliyat — bu bolalar qalbida go‘zallikni his etish, aql bilan idrok etish va qo‘l bilan ifoda etish san‘atidir.” San‘at ta‘limi sohasidagi pedagoglar darslarni qay yo‘sinda olib borishi juda muhim. Negaki, San‘at ta‘limida pedagogning dars o‘tish uslubi o‘quvchi shaxsining ijodiy fikrlashini shakllantirish, tasviriy ko‘nikmalarini rivojlantirish va go‘zallikni his qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qilishi kerak. Dars faqat texnik mashg‘ulot emas, balki o‘quvchini san‘at olamiga yetaklovchi ijodiy jarayondir. Shuningdek, ma‘naviy va estetik muhit yaratishi kerak. O‘quvchi san‘at darsida o‘zini erkin his qilsa, u o‘z fikrini ranglar, shakllar yoki chiziqlar orqali ifodalashdan cho‘chimaydi. Bu esa ijodkorlikni rag‘batlantiradi.

KALIT SO‘Z: Tahlil ; sintez ; tahliliy faoliyat ; applikatsiya ; rangtasvir ; san‘at ta‘limi.

KIRISH

Bundan tashqari o‘rganuvchi shaxslar uchun diqqat va kuzatuvchanlik qobiliyati juda muhim. Ko‘rib turganimizdek, san‘at tasvir ta‘limi faqat mo‘yqalamni o‘ynatishda emas balki rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikatsiya - bu tasviriy faoliyat turlari bo‘lib, ularning asosiy vazifasi tevarak-atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi. Masalan, yozuvchining she‘ri va rassomning asari. Tasviriy faoliyat maktab yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy faoliyat bolalarni ongli tomondan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, uning shakli, katta-kichikligini, qismlarning joylashishi, rangini bilish kerak bo‘ladi. Bu jarayonda ko‘rish, sezish, qo‘l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi. Bolalar predmet va hodisalarni kuzatish va ko‘rib chiqish jarayonida predmetni katta-kichik guruhlarga bo‘lib, uning shaklini o‘zgartirib, rangini turli-tumanligi bilan tasvirleydilar.

Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli xil material (qog‘oz, bo‘r, bo‘yoqlar) bilan ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ular bilan



ishlash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa bolalarning aqlan o'sishiga sabab bo'ladi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari (tahlil, sintez, tagqoslash umumlashtirish)ning rivojlanishiga imkon beradi, bu, o'z navbatida, bolalarning oqilona o'sishiga olib keladi. Bu jarayonda bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatleri, shakli, rangi bilan, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularning fargini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Chunki bolalar o'z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar. ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar.

MAQSAD VA VAZIFALAR

Lev Tolstoy : "San'at — bu inson qalbini poklovchi va uni yuksak tuyg'ular sari yetaklovchi kuchdir."-deya e'tirof etgan. Demak, biz bajarayotgan ishimizni qanchalik sevsak, bu ish ham bizga muvaffaqiyat olib kelishi tayin. Tasviriy faoliyat ham shunday kuch va mehnatni talab qiladi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri -boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlar tarbiyalanadi. Bolalarda, ishni baholash jarayonida, bolalarni o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bulish kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari ta'lim jarayonlarida o'quvchilarning psixologik holati ham muhim, xuddi yuqoridagi kabi.

Shunga ko'ra biz ta'lim oluvchilarning psixo-fiziologik holatini 3 asosiy sohaga bo'lib o'rganamiz va ularning holatini yaxshi tomonga o'zgartirishga ko'maklashadi.

1) Kognitiv sohada - talabalarning o'z muammolarini anglash, o'z ruhiy holatini optimallashtirish imkonini beruvchi sanogen (sog'lomlashtiruvchi) fikrlashni o'rganishiga ko'maklashishni.

2) Emotsional sohada - talabalarning o'z his-tuyg'usini boshqarish, o'zi va o'zgalarning his-tuyg'ulari bilan hisoblashish, o'z muammolariga tegishli bo'lgan kechinmalarni tushunish va ifodalay olish, turg'un emotsional holatni



rivojlantirish, salbiy emotsional holatlarmi yengib o'tish ko'nikmalarini egallashlariga yordam berishni.

3) Xulq-atvor sohasida - talabalarning o'z-o'zini boshqarish, o'z xulq-atvoriga ongli ravishda ta'sir o'tkazish, o'z hatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlash yoki o'zgartirishga yordam berish nazarda tutildi.

XULOSA

Xulosada, barchamiz shaxs bo'lib yaralibmizki, bizda muloqot uchun til va fikrlash uchun ong mavjud. Shu boisdan ham ma'lum kasbga yo'nalgan shaxslardan, ta'lim oluvchilardan talab qilinadigan asosiy narsalar, diqqat va kuzatuvchanlik hisoblanadi.

Keling bunga bu ma'lumotga olimlarning fikriga ko'ra oydinlik kiritaylik. S.L.Rubinshteyn bo'yicha shaxs tuzilishi quyidagi ko'ri- nishga ega:

1.Yo'nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarni o'z ichiga oladi.

2. Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar - hayot va faoliyat jarayo- nida egallanadi.

3.Individual psixologik xususiyatlar qobiliyat, xarakter, temperamentlarda ifodalanadi.

Shaxs taraqqiyoti, va uning kamoloti to'g'risida turli xil konsepsiyalar mavjud. Ular inson shaxsini o'rganishda turlicha yondashib, o'z pozitsiyalarini himoya qilib kelmoqdalar. Mazkur ma'lumotlar zamonaviy pedagoglar bilishi kerak bo'lgan va hozirda muhim manbaa sifatida qaralyotgan jihatlar hisoblanadi.

Demak, zamonaviy pedagoglarning dars o'tish mahorati samarali usul sifatida qaralmoqda. Ammo, shuni ta'kidlash lozimki bizgacha ham ko'plam malakali kadrlar yetishib chiqqan. Ular ham albatta o'z davrining qobiliyatli olim va metodistlari bo'lishgan. Barcha o'rganuvchilar o'zlarining shaxsiy usul va qo'llanmalari asosida shogirdlar yetishtirishgan. Shu boisdan, biz hozirga kelib, bu usul xato yoki bu usul samarasiz tarzida qoralay olmaymiz. Biz shunchaki zamon talabini asosida kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni berib boramiz. San'at va ilm-fanni uyg'unlikda his qila olishlari ko'maklashamiz. San'at tasviri faqatgina ranglar bilan ishlaymaydi, ular mantiqiy natijani his qila olishlari va o'rgatishdan ilhomlantirish sari tamoyili asosida bu soha haqida o'zlariga kerakli yo'riqlarni yarata olishlari muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.SH.Nurmatova, SH.T.Hasanova, RASM, BUYUMLAR YASASH VA TASVIRIY FAOLIYAT METODIKASI, Toshkent, 2010-yil, 181 b.



2. Axrorov. V. Y, Oliy ta'lim muassasalari talabalari psixologik salomatligini ta'minlashda psixologik-pedagogik omillarning o'rni, Monografiya, Andijon-2025, 177 b.
3. Shohista Shoyimova, Psixologiya va pedagogika, Toshkent, "EFFECT-D"-2022, 384 b.
4. Azizxodjayeva. N. N, Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat, O'quv qo'llanma, " O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
5. Jalilova, S. (2021). Ijodiy yondashuv orqali ta'limda motivatsiyani oshirish yo'llari. "O'zbekiston pedagogik yangiliklari", 2(1), 44–50.
6. Abdurahmonova, M. (2023). San'at ta'limida o'qituvchi shaxsining ilhomlantiruvchi roli. "Pedagogika va san'at" jurnali, 4(2), 56–63.